



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## SHAXS IJODKORLIGI TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING RIVOJLANISHI

**G. Xudaybergenova,**

*NDPI Gumanitar va ijtimoiy fanlarni oraliqtan o'qitish kafedrasi assistent o'qituvchisi*

**Annotaciya:** *Ushbu maqolada ijodkorlik tushunchasi va uning mohiyatini tushintirishda antic davr faylasuf va mutafakkirlarining fikrlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'z:** *ijodkorlik, ilohiy va insoniy ijod, ekzistencializm, ijodiy jarayon, ijodkor odam, his-tuyg'u, ijodiy tasavvur.*

Har qaysi davrda ham jamiyatning rivojlanishiga undagi ilmga chanqoq, jamiyatning va o'z hayotiga yangicha o'zgarishlarni kirita oladigan, insoniyat madaniyatini yangi cho'qqilarga ko'tara oladigan odamlarga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda har bir davlat ijodkorona yondoshadigan shaxslarga muxtojligi bor. Shunday ekan, jamiyat oldidagi asosiy vazifalarning biri ham ijodkor, kreativ fikrlaydigan insonlarni etishtirish hisoblanadi.

Psixologik lug'atda, ijodkorlik «natijasi yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish bo'lgan faoliyat», deb ta'riflangan. [3;328]. Ya'ni, ijodkorlik ijodiy jarayonning natijalari bilan bog'liq bo'lib, yangi ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot olishdir.

Ijodkorlikning mohiyati antik davrlardan boshlab barcha faylasuf va mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi faylasuflar ijodkorlikni ikki xil shaklda bo'lishini ko'rsatib o'tadi: ilohiy va insoniy ijod. Ilohiy ijodkorlik koinot va hayotning yaratilishi harakatlarida namoyon bo'lsa, insoniy ijodkorlik san'at va hunarmandchilik shaklida ko'rinadi. Har qanday holatda ham insoniyat ijodkorligi ilohiy rejalarga bog'liq holda bo'lib, inson ilohiy irodani faqat er yuzidagi ishlarida amalga oshiradi.

Antik davr faylasuflaridan Sokrat insonning bilishi va ijodkorligida fikr almashinishining ahamiyati haqida to'xtalib, u yangi bilimlarni hosil qilishning diologik usuli - mayevtikaning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan.

Aristotel ham ishlarida ijodkorlikka diqqatini jalb qilgan. Insonning his-tuyg'ulariga katta ahamiyat qaratgan holda Aristotel, uning hayotida san'atning muhim rolini ta'kidlaydi. [4;8].

Ijodkorlikni falsafiy tushunishning navbatdagi bosqichi o'yg'onish davridir (F.Petrarka, Dj.Bokachcho, B.Telezio, M. Monten` va h.q.). Bu davrda insoniyat tsivilizatsiyasining rivojidagi eng muhim xususiyatlardan biri urg'uning ilohiydan



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

insonga o‘tishi hisoblanadi. Bu davrda ijodkorlik birinchi navbatda uning badiiy shakli sifatida tushinilgan.

Keyingi bosqich Zamonaviy davrda inson erkinligi asosiy qadriyatlardan biri sifatida qarala boshlagan, din, davlat tomonidan har qanday bosim va ijtimoiy cheklovlarni inkor eta boshlaydi. Bu davr namoyondalari F.Bekon, G.Gobbslar hisoblanadi. G.Gobbs birinchilardan bo‘lib «ijodiy tasavvur»ning ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi. [4;9]

Nemis falsafasining rivojlanishi davrida I.Kant tomonidan ishlab chiqilgan «nisbatan uyg‘unlashgan ijod» tushunchasi F.Shelling tomonidan rivojlantirilgan. Kant ijodiy faoliyatni «tasavvurning samarali qobiliyati» deb qaragan. Shuningdek, nemis falsafasida ijodkorlik muammolarini ishlab chiqishda uning ongsiz tomonlarining ahamiyatini o‘rganish ma’lum o‘rinni egallaydi. F.Shellingning fikricha, ijodiy tasavvur insonning ongli va ongsiz faoliyatining sintezidir. DaXolik ijodkorlikning alohida turi sifatida qaraladi, chunki, daho asosan qoridan alohida ta’sir, ilohiy impul’sga bo‘ysingan holda ongsiz ravishda yaratadi, deb faraz qilinadi [4;11].

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida hayotning ma’naviy irrotsional tomonlariga, asosan, alohida e’tibor qaratuvchi bir qancha falsafiy oqimlar paydo bo‘la boshladi. Ular orasida hayot falsavasi va eksiztentsializm alohida o‘rin tutadi.

Hayot falsafasi ijodkorlikni insonning biologik mohiyati bilan belgilanadigan inson hayotining hodisasi sifatida qaraydi. Ushbu oqimning yorqin vakillaridan biri A.Bergsonning fikricha, «ijodkorlik ilohiy ne‘mat bo‘lgan, har bir insonga xos bo‘lmagan irratsional sezgi bilan chambarchas bog‘liq va butunlik, zo‘ravonlik bilan ajralib turadi» [1;38].

Ushbu davrning yana bir yo‘nalishi ekzistentsializm bo‘lib, unda inson hayotining falsafiy, badiiy va ahloqiy sohalarda mumkin bo‘lgan ijodning shaxsiy va ma’naviy mohiyatining ustivor ahamiyati ta’kidlangan. Bu yo‘nalishning asosiy namoyondalaridan biri N.A.Berdiyev hisoblanib, uning barcha izlanishlari va sevimli mashg‘ulotlarining asosiy mavzusi – ijodkor odam – homo creamus bo‘lgan [2; 11].

Inson ijodiy faoliyatining ma’nosini zamonaviy tarzda tushinishni M.Xaydeger va X.G.Gadamerlarning asarlarida ko‘rish mumkin.

Inson erkinligi, ularning tushinishicha, matnni o‘z talqinicha namoyon etishida ko‘rinadi. Matn muallifi ham, talqin qiluvchi ham yagona va yaxlit ijodiy mahsulotning «yaratuvchisi» sifatida ko‘rinadi.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Ijodkorlikda shaxsning «ozod bo‘lishi» goyasi o‘zining keyingi rivojlanishini poststrukturalizm (J. Delez, J. Derrida, Yu. Kristeva) topadi, bunda tadqiqot ob‘ekti tizimlardan emas, balki barcha mumkin bo‘lgan tizimlardan tashqarida joylashgan tartibsizliklardir. Samarali fikrlar almashinuvini ta‘minlovchi bu tartibsizlikda inson oldida ijodkorlikning cheksiz istiqbollari, har xil talqinlari ochiladi [4;13].

Umumiy tarzda, ijodkorlikning mohiyatini tushunishning falsafiy yondoshuvlarida, uning inson hayotidagi ahamiyati har bir davrda o‘zgarib borgan.

Tasavvufiy g‘oyalar o‘z o‘rnini realistik g‘oyalarga bo‘shatib berdi. Falsafiy g‘oyalarni rivojlanishi bilan, ijodiy jarayonda ongsizlikning roli, sub‘ektning ijodiy faoliyat maxsulotlarini ijtimoiy baholashning ahamiyati bilan bog‘liq falsafiy va psixologik muammolarni hal qilishga bog‘liq urinishlar kuchayib bordi.

Turli tarixiy davrlarda va turli darajalarda ijodiy faoliyatning shakllanishi tahlil qilib kelingan. Bu ayniqsa Xozirda texnologik va axboriy jamiyatning rivojlanishi jadal taraqqiy topayotgan sharoitda yana ham kata ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бергсон А. Творческая эволюция. М.: Терра — Книжный клуб, 2001.
2. Бердяев Н.А. Смысл творчества. Опыт оправдания человека. М.:Фолио: АСТ, 2002.
3. Степанов С. С. Популярная психологическая энциклопедия: — М.: Изд-во Эксмо, 2005. - 672 с.
4. Яголковский, С. Р. Психология креативности и инноваций: учеб. пособие / — М.: Изд. дом ГУВШЭ, 2007. — 15